



QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATINI RAG'BATLANTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING TUTGAN O'RNI

prof. **Amanov Akram**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0007-0416-4765

akramamanov2707@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada qishloq xo'jaligi korxonalarini soliqqa tortish amaliyotidagi islohotlar, ularning samaradorligi tahlil qilingan. Agrar sohani rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar o'rganilib, qishloq xo'jaligi korxonalarini va ularda faoliyat olib borayotgan ishchi-xizmatchilarni adolatli soliqqa tortish yuzasidan taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi korxonalari, klasterlar, fermer xo'jaliklari, soliqqa tortish tizimi, foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, yer solig'i, soliq stavkalari.

РОЛЬ НАЛОГОВЫХ ЛЬГОТ В СТИМУЛИРОВАНИИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

проф. **Аманов Акрам**

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье анализируются реформы в практике налогообложения сельскохозяйственных предприятий и их эффективность. Изучены нормативные документы, разработанные в целях развития аграрного сектора, даны предложения и рекомендации по справедливому налогообложению сельскохозяйственных предприятий и работающих в них работников.

Ключевые слова: сельское хозяйство, сельскохозяйственные предприятия, кластеры, фермерские хозяйства, система налогообложения, налог на прибыль, налог на добавленную стоимость, земельный налог, налоговые ставки.

THE ROLE OF TAX INCENTIVES IN STIMULATING THE ACTIVITIES OF AGRICULTURAL ENTERPRISES

prof. **Amanov Akram**

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article analyzes reforms in the practice of taxation of agricultural enterprises and their effectiveness. Regulatory documents developed for the purpose of development of the agrarian sector were studied, suggestions and recommendations were made regarding the fair taxation of agricultural enterprises and the workers working in them.

Keywords: agriculture, agricultural enterprises, clusters, farms, taxation system, profit tax, value added tax, land tax, tax rates.

Kirish.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida qishloq xo'jaligi eng strategik tarmoqlardan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son Farmoni bilan tasdiqlangan Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida tarmoqni boshqarishning klaster tizimiga o'tish va fiskal siyosatni takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Yangi O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida qishloq xo'jaligi korxonalarini soliqqa tortish, ular faoliyatini soliq imtiyozlari va preferensiyalar orqali qo'llab-quvvatlash, soliq ma'murchiligini yanada soddalashtirish kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Qishloq xo'jaligi korxonalaridan soliqlar va majburiy to'lovlarni undirish uslubiyati iqtisodiy islohotlarning har bir bosqichda takomillashtirilib kelinmoqda. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining bir qismi egaligidagi sug'oriladigan yer uchastkalarining hajmidan kelib chiqqan holda belgilangan uslubiyat asosida soliqlarni to'lab kelmoqdalar.

Keyingi yillarda Muhtaram Prezidentimiz rahbarligida qishloq xo'jaligida chuqur tarkibiy islohotlarni amalga oshirish belgilab berildi. Jumladan, qishloq xo'jaligida bozor munosabatlarini joriy etish, qayta ishlash va eksport infratuzilmasini rivojlantirish, fermer va dehqonlarning daromadini oshirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar olib borilmoqda.

Xalqimiz, davlatimiz Yangi O'zbekiston poydevorini jadallik bilan bunyod etmoqda. Barcha soha va tarmoqlar Prezidentimiz ilgari surgan "Inson qadri uchun" tamoyili asosida tubdan isloh qilinyapti.

Yangi O'zbekiston, eng avvalo, yangicha iqtisodiy munosabatlar, yangicha iqtisodiy dunyoqarash demakdir. Shu bois mamlakatimiz iqtisodiy tizimi to'liq qayta qurilyapti, bozor mexanizmlari tizimli joriy etilmoqda. Xususan, keyingi yillarda respublikamiz qishloq xo'jaligiga bozor iqtisodiyotiga xos yondashuv va moddiy rag'batlantirish mexanizmlari joriy etilishi boshlandi. Agrar sektorni yalpi va tizimli transformatsiya qilishdan ko'zlangan maqsad esa soha samaradorligini oshirish, dasturxonimiz to'kinligini ta'minlashdir.

Adabiyotlar sharhi.

Asosiy maqsadi budget daromadlarini shakllantirish bo'lgan soliqlarning iqtisodiy va ijtimoiy mohiyati ko'pchilik iqtisodchi olimlar tomonidan turli yo'nalishlarda o'rganilgan. Hukumatning qonun chiqaruvchi organi tomonidan joriy qilinadigan soliqlar va unga tenglashtirilgan to'lovlar, soliq kategoriyasi namoyon bo'lishining aniq shakli sifatida amaliyotda harakat qiladi. Nazariy jihatdan soliq kategoriyasi bo'yicha ko'plab mushohadalar, ilmiy qarashlar shakllangan bo'lib, ularning ayrimlarini ya'ni, mahalliy iqtisodchi olimlarimiz va amaliyotchi mutaxassislarining qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilaridan olinadigan soliqlar yuzasidan bildirgan fikr-mulohazalarini o'rganib chiqamiz.

A.Jo'rayev o'z monografiyasida yer solig'i bo'yicha quyidagi fikr mulohazalarni keltiradi: "Ayni vaqtda, shuni ta'kidlash lozimki, hozirgi vaqtda yer solig'i foydalanilayotgan yer resurslarining iqtisodiy samaradorligini hisobga olmaydi. Holbuki, yer maydonlari unda yetishtiriladigan o'simliklarning turlari bo'yicha turlicha daromadlilik darajasiga ega bo'lish mumkin". Shu bilan birga yer solig'i yuzasidan bergan fikrlarida soliq stavkalarini belgilash muhim masalalardan ekanligini uqtirib, quyidagi qarashni shakllantiradi: "Yer solig'ining stavkalarini belgilashda, qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun foydalaniladigan yerdan olinadigan daromad hisobga olinishi lozim"(Jo'rayev, 2004).

Yagona yer solig'ini undirishni maqbul holatga keltirishda yuqoridagi qarashning mohiyati bazis sifatida o'rganilgan hamda tadqiqotda bu masalaga atroflicha yondashilgan.

A.Altiyev yagona yer solig'ining tajriba sifatida kiritilgan uslubiyatiga quyidagicha fikr bildiradi: "Yerlarning me'yoriy qiymati har bir qishloq xo'jaligi korxonasining ixtisoslashganligi, olinayotgan daromadi va sarflangan xarajatlari, mahsulotlarni topshirish maskanlariga bo'lgan masofalari va ularning boshqa xususiyatlarini hisobga olib ishlab

chiqilgan”(Altiyev, 2005). Shundan kelib chiqqan holda yagona yer solig'ini hisoblab chiqarishning ushbu usulini joriy qilishdan maqsad, asoslangan va adolatli soliq tizimini o'rnatishdir degan xulosaga keladi.

A.Latipov qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga joriy etilgan yagona yer solig'ini tahlil qilib, quyidagi mulohazalarni keltiradi: “Yagona yer solig'ini yerlarning sifatidan kelib chiqib hisoblab chiqarishning barcha ijobiy jihatlarini e'tirof etgan holda jiddiy kamchiligi borligini ham ro'y-rost aytish kerak. Soliq solishning bu tizimida qishloq xo'jaligining turli tarmoqlaridagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rentabelligi inobatga olinmaydi”(Latipov, 2006). Ushbu kamchilikni bartaraf etish maqsadida soliq amaliyotiga yerlarning me'yoriy qiymati asosida yagona yer solig'ini hisoblash uslubi joriy qilinganligini ta'kidlaydi.

V.Ten ham “Qishloq xo'jaligi korxonalarining ixtisoslashuvi, qishloq xo'jaligi ekinzorlari maydoni, ekin maydonlarining tuzilishi, mahsulot realizatsiyasi bahosi, muayyan qishloq xo'jaligi korxonasining normativ sof daromadi va bonitetining o'rtacha balli yerlarning normativ qiymatini hisob-kitob qilishda asosiy birlamchi ma'lumot hisoblanadi”-degan mulohazani keltiradi (Ten, 2006). Bunda xo'jalik yuritish darajasi, hududlarning mahalliy o'ziga xos xususiyatlari, xo'jalikning aholi punktlari hamda mahsulot topshiriladigan punktlarga nisbatan joylashuvi, shuningdek sug'orish uchun suv berish usullari inobatga olinadi. Shunday qilib, yerlarning normativ qiymati har bir xo'jalikning o'ziga xos xususiyatini inobatga oladi. V.Tenning fikricha, hisoblab chiqarishning bu usuli soliq solishning asosli va yanada adolatli tizimini belgilash imkonini beradi. Ushbu iqtisodchi yagona yer solig'ini to'lovchi fermer xo'jaliklarini, agar ular shug'ullanayotgan boshqa faoliyat turlari ulushi xo'jalik umumiy daromadining kamida 30 foizini tashkil etadigan bo'lsa, faoliyatning boshqa turlaridan olingan daromadlarni soliq to'lashdan ozod qilishni taklif etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur mavzuni yoritishda tahlil, induksiya, deduksiya, tizimli va kompleksli yondashuv usullaridan keng foydalanildi hamda mahalliy va xorijiy olimlarning qishloq xo'jaligi korxonalarini soliqqa tortishdagi iqtisodiy qarashlari, sohaga oid qonunosti va me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakat aholisining qariyb 16,4 millioni (jami aholining 49,4 foizi) qishloq hududlarida istiqomat qiladi (2018). Mamlakatda tug'ilish darajasi yuqori (23,3 promille) va shunga mos ravishda qishloq joylarida ortiqcha ishchi kuchi mavjud. 25 yoshgacha bo'lgan odamlar aholining 45,5 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa 55 foizdan ko'prog'ini tashkil etadi.

Qishloq hududlarida davlat xizmatlari, shuningdek transport va axborot-kommunikatsiya aloqalari darajasi pastligicha qolmoqda. Hududiy ehtiyojlarni batafsil baholashga asoslangan va raqobat afzalliklarini hisobga olgan holda kompleks strategiya va dasturlarni ishlab chiqish talab etiladi.

Agrar sektorda amalga oshirilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari aksariyat hollarda to'g'ridan-to'g'ri fermerlar va boshqa qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga yo'naltirilgan.

Xorijiy mamlakatlar bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilinganida, qishloq hududlarining iqtisodiy taraqqiy etishi qishloq xo'jaligini rivojlantirish bilan bevosita bog'liqligi va shundagina muvaffaqiyatga erishilishi, mahallalarning muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga yo'naltirilgan subsidiyalarga asoslangan islohotlar samarasiz ekanligi kuzatildi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligining muvofiqlashtiruvchi ostida amalga oshirilayotgan qishloqlarni rivojlantirish dasturlari, asosan, hududiy iqtisodiy nomutanosiblikni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, yirik shahar markazlari foydasi uchun, qishloq aholisining kichik bir qismi - fermerlar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan shug'ullanadigan boshqa

tadbirkorlar sektori tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, biroq qishloq mahallalari chetda qolmoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda yer o'zining haqiqiy egasini topib, fermerlik harakati yurtimiz taraqqiyotida hal qiluvchi kuch bo'lib maydonga chiqayotgani, dalada ishlaydigan har bir odamda o'z mehnatidan manfaatdorlik hissini kuchaytirib, kelajakka ishonchi yanada mustahkamlanib borayotgani, faqatgina qishloq xo'jaligini emas, balki butun hayotimizni tubdan o'zgartirmoqda. Boshqa sohalar singari agrar tarmoqning ham bugungi shiddatli zamon bilan hamnafasligini ta'minlash, dehqonu mirishkorlarimiz, fermerlarimiz tomonidan etishtirilayotgan mahsulotlarning jahon bozoridan munosib o'rin egallashiga erishishga qaratilgan chora-tadbirlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Qishloq xo'jaligida mavjud muammolar va ularning yechimlarini huquqiy asoslarini yaratish, iqtisodiyotimizni, jumladan, qishloq xo'jaligi sohasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish, fermer, klaster hamda kooperatsiyalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash masalasiga har doimgidan ham ko'proq ahamiyat berilmoqda. Xususan, 2020 yil qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining 5 ta Qonuni, Prezidentning 12 ta Farmoni va 30 dan ortiq Qarori hamda hukumatning ko'plab Qarorlari ayni shu yo'nalishga qaratilganligi ham fikrimizning yaqqol dalilidir.

Bu borada alohida ta'kidlashimiz lozimki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonini haqiqatan ham o'z vaqtida qabul qilingan hujjat deb aytishimiz mumkin.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi sohasida tub burilish yasashga qaratilgan mazkur Strategiya 9 ta ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga qamrab olib, quyidagi dolzarb masalalarning asosiy yechimi bo'lib xizmat qiladi.

- aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash;
- qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish;
- soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish;
- boshqaruvning zamonaviy tizimlarini rivojlantirish; tarmoqni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish;
- qishloq xo'jaligida ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish;
- qishloq hududlarini rivojlantirish;
- tarmoq statistikasining shaffof tizimini yaratish kabi masalalar belgilab berilgan.

Shuningdek, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2022)doirasida belgilangan paxta va boshqoli don ekiladigan maydonlarni qisqartirish, bo'shagan yerlarga kartoshka, sabzavot, ozuqa va yog' olinadigan ekinlarni ekish, shuningdek, yangi intensiv bog' va uzumzorlarni joylashtirish, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rag'batlantirish va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashga ixtisoslashgan qayta ishlash korxonalarini tashkil etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tashish va sotish, agrokimyo, moliyaviy va boshqa zamonaviy bozor xizmatlari ko'rsatish infratuzilmasini yanada kengaytirish kabi vazifalar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, bo'sh turgan yer uchastkalarini tezroq iqtisodiy oborotga kiritish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi xo'jaliklar faoliyatini rag'batlantirishi uchun hukumatimiz tomonidan bir qator tartib-taomillar amaliyotga joriy etildi. Jumladan:

- elektron onlayn auksion savdosini o'tkazish to'g'risidagi xabarnomani e'lon qilish muddati 15 kundan 5 kunga, takroriy savdolarida -5 kundan 1 kunga qisqartirildi;
- takroriy savdolarida faqat bir nafar talabgordan ariza kelib tushgan taqdirda, unga ushbu savdoda e'lon qilingan narxda lotni ixtiyoriy sotib olish taklif etiladi;

-har takroriy savdoda lot narxi 10 foizdan bosqichma-bosqich boshlang'ich narxning 20 foiziga tushganiga qadar pasaytiriladi.

-2025 yil 1 apreldan boshlab barcha hududlarda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan barcha turdagi yerlarni ijaraga berish bo'yicha o'tkaziladigan elektron onlayn auksion savdolarida yer uchastkasiga ijara huquqini olish uchun to'lovlarni bo'lib-bo'lib to'lash va to'lov to'liq to'langanda chegirma berish tartibi bekor qilindi, ushbu to'lovlar 15 ish kuni ichida to'liq to'lanishi shartligi belgilandi.

Xulosa va takliflar.

Qishloq xo'jaligi xo'jaligi korxonalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirishga xizmat qiladigan quyidagi taklif va tavsiyalardan soliqqa tortish amaliyotida foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1) Fermerlar uchun yerdan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida yondosh yer uchastkalari sifatida (dala chetlarida) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlaridan oladigan daromadlarini foyda solig'i bazasidan, agar aylanmadan soliq to'lovchi hisoblansa, aylanmadan olinadigan soliq bazasidan chegirish lozim;

2) Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer uchastkalarining dala chetlari, shu jumladan, ichki kollektor, roshlar, ariq bo'ylaridagi yerlar qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish va (yoki) chorvachilik, parrandachilik va asalarichilik faoliyatini yuritish uchun yuridik va jismoniy shaxslarga o'n yilgacha bo'lgan muddatga ikkilamchi ijaraga berilishidan olinadigan daromadlar ham soliqdan ozod qilinishi kerak;

3) Paxta-to'qimachilik klasterlari tomonidan paxta hosili uchun yakuniy hisob-kitoblar o'z muddatida amalga oshirilmagan taqdirda, yuzaga kelgan soliq qarzdorligini qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi hisoblangan qishloq xo'jaligi korxonalari (fermer xo'jaliklari)ga olti oy muddatga teng ulushlarda bo'lib-bo'lib to'lash huquqini berish lozim;

4) Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarga foyda bo'yicha "nol" foiz miqdorida stavka joriy qilingan. Mazkur soliq stavkasining qo'llanilishi uchun qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilari realizatsiya qilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmida o'zi ishlab chiqargan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 90 foizdan ortiqni tashkil etishi belgilangan. Bizningcha qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmida o'zi ishlab chiqargan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 50 foizdan ortiqni tashkil etishi lozim deb belgilash maqsadga muvofiqdir. Bu qishloq xo'jaligi korxonalari transformatsiyalashuvini yanada tezlashtirishga xizmat qiladi;

5) Paxta va g'alla yetishtirishga ixtisoslashgan qishloq xo'jaligi korxonalari ishchi va xodimlarining (doimiy yoki mavsumiy ishlashidan qat'iy nazar) mehnatga haq to'lash tarzidagi hamda moddiy naf tarzidagi daromadlarini jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod qilish lozim. Bu chora-tadbir sohada ishlayotgan ishchi va xodimlarning moddiy manfaatdorligi oshishiga hamda kadrlar qo'nimsizligiga barham berishga xizmat qiladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari uchun soliqqa tortish amaliyotiga kiritiladigan o'zgartirishlar, klasterlar, fermer xo'jaliklari hamda ularda faoliyat yuritayotgan ishchi va xodimlar zimmasidagi soliq yukining kamaytirilishi bevosita xufyona iqtisodiyotning qisqarishiga va kelajakda davlat byudjeti daromadlari ko'payishiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Altiev A.(2005) *Tabiiy resurslarga solinadigan soliqlar tizimini shakllantirish // Bozor, pul va kredit. – Toshkent, 2005. -№11. -B. 30-32.*

Jo'raev A. (2004) *Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. – Toshkent: Fan, -105 b.*

Latipov A.(2006) *Har qarichi ardoqlanur zaminning // Soliqlar va bojxona xabarleri gazetasi. –Toshkent, -№ 40 (636). -B. 6.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022). PF-60-sonli Farmon: "Yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillardagi taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. 28-yanvar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2023). PQ-69sonli Qaror: "Qishloq xo'jaligida aholi bandligini oshirish va yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida. 23-fevral.

Ten V.(2006) Dehqonga ko'maklashguvchi kim? yoki mamlakatimiz qishloq xo'jaligida soliq solish tizimini takomillashtirish yo'llari // Soliqlar va bojxona xabarlari gazetasi. –Toshkent, - №51 (647). -B. 7-8.

Аманов А.М. (2016) Определение налоговой задолженности // Вестник современной науки. Научно-теоретический журнал. Часть 1. Стр. 77-79

Аманов А.М. (2017) Приоритетные направления совершенствования налоговой системы Республики Узбекистан // ЭКОНОМИКА И БИЗНЕС: теория и практика журнал. №5. Стр. 17-20.

Аманов А.М.(2021) Сельское хозяйство республики Узбекистан в условиях цифровизации экономики // «Интернаука»: научный журнал – № 19(195). Часть 4. Москва, Изд. «Интернаука»,. Стр. 16-19.